

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



MUALLIF IDIOSTILINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИДИОСТИЛЯ АВТОРА

LINGVOPOETIC FEATURES OF THE AUTHOR'S IDIOSTYLE

Abdupattoev Muhammadtohir Tojimamatovich 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada poetik sintaksis sohasining muammoli masalalaridan biri hisoblangan muallif idioshtilini o'rganish bo'yicha nazariy qarashlar bayon etilgan. Poetik asarlarning lingvopoetik tahliliga qaratilgan tadqiqotlarda idioshtil ijodkor badiiy olamini yoritish uchun xizmat qiluvchi lisoniy usul va vositalarning murakkab tizimi sifatida ta'riflanadi. Mazkur ta'rif ijodkorning so'z tanlash va fikrni bayon qilish uslubida faqat o'zigagina xos bo'lgan va faqat o'zi amal qiladigan lisoniy qonuniyatlarni o'ziga bo'ysundirishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, idioshtil lingvistik atama sifatida individual uslub (stil) birikmasining qisqartirilgan shakli bo'lib, biror bir ijodkor ning tildan foydalanish xususiyatlarini o'z ichiga olgan uslubning o'ziga xos kompleksi ma'nosini ifoda etadi. Mazkur atama badiiy asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda qo'llanib, nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma'nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati va fikrni yetkazish uslubi ma'nosini o'z ichiga oladi. O'zbek poetik sintaksisi doirasida, o'zbek poetik nutqi tadqiqida muallif idioshtilini alohida kategoriya sifatida o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi jahon tilshunosligi tajribasi asosida yoritilgan.

Аннотация

В данной статье изложены теоретические взгляды на изучение авторского идиостиля, который является одной из проблемных областей поэтического синтаксиса. В исследованиях, посвященных лингвопоэтическому анализу поэтических произведений, идиостиль определяется как сложная система языковых приемов и средств, служащих для раскрытия художественного мира автора. Данное определение показывает, что автор подчиняет себе уникальные и только ему присущие языковые закономерности в выборе слов и способе выражения мысли. Исходя из этого, идиостиль как лингвистический термин является сокращенной формой словосочетания "индивидуальный стиль" и выражает собой уникальный комплекс стиля, включающий особенности использования языка конкретным автором. Данный термин используется в научных работах, посвященных анализу художественных произведений, и употребляется в значении неповторимого и уникального стиля автора речи, охватывая мастерство выбора слов и способ передачи мысли, резко отличающиеся от стилей других авторов. В рамках узбекского поэтического синтаксиса, на основе опыта мировой лингвистики, освещается важность изучения авторского идиостиля как отдельная категория в исследовании узбекской поэтической речи.

Abstract

This article presents theoretical views on the study of the author's idioshtil, which represents one of the central issues in poetic syntax. In studies devoted to the linguopoetic analysis of literary works, idioshtil is defined as a complex system of linguistic devices and means that serve to reveal the author's artistic world. This definition demonstrates that the author subordinates linguistic regularities unique to their own creative manner in word choice and thought expression. As a linguistic term, idioshtil is a shortened form of "individual style" and refers to a specific stylistic complex encompassing an author's distinctive features of language use. The term is employed in linguistic and literary studies to describe the inimitable and unique manner of expression, word choice, and communication that differentiates one author's style from another. Within the framework of Uzbek poetic syntax, based on global linguistic experience, the importance of studying the author's idioshtil as a separate category in the analysis of Uzbek poetic speech is emphasized.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, lingvostilistika, ritorika, poetik sintaksis, poetik nutq, idioshtil, idiolekt, eksspressivlik, kommunikatsiya, ekstralingvistika

Ключевые слова: лингвопоэтика, лингвостилистика, риторика, поэтический синтаксис, поэтическая речь, идиостиль, идиолект, экспрессивность, коммуникация, экстралингвистика.

Key words: linguopoetics, linguistics, rhetoric, poetic syntax, poetic speech, idioshtil, idiolect, expressivity, communication, extralinguistics.

KIRISH

Nutq muallifining individual uslubi masalasi uslubshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Nutqni aniq voqelik sifatida emas, balki inson tafakkuri mahsuli sifatida tadqiq etish antik davrlardan boshlangan. Shuning uchun ham ular uslubni san'at turi emas insonning individual xususiyati deb baholaganlar. Shundan kelib chiqib, asar muallifining idiosstil (jahon tilshunosligida ushbu atama ancha ommalashganini e'tiborga olib, biz ham ushbu atamadan foydalanishni lozim topdik)ini uning ruhiyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tganlar. Tilshunoslik til vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xosliklar, bunday o'ziga xosliklar tizimini tekshiradi, lekin muallif idiosstilini o'rganish uchun buning o'zi kifoya qilmaydi. Sof lingvistik tahlildan tashqarida turuvchi asar kompozitsiyasi, syujeti, g'oyasi kabi masalalar ham borki, ular adabiyotshunoslik mezonlari asosida o'rganiladi. Tilshunoslik, shuningdek, adabiy meyorlar, asar muallifining bu meyorlarga qay darajada amal qilishi, adabiy til meyorlarining ma'lum bir stilistik maqsadlarda buzilishi yoki o'zgartirilishi kabi bir qator muammolar va hozirgi adabiy til va muallif idiosstilining o'zaro munosabati masalalarini ham o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilni uslubiy meyorlar asosida tahlil qilish va tasvirlash uslubshunoslikning markaziy muammolari sifatida o'rganilish tarixi jahon tilshunosligida XVII asrga borib taqaladi. Y.V. Larchenkoning qayd etishicha, nutq muallifining individual uslubi (idiosstili)ni o'rganish, muallif uslubiga diqqat qaratish dastlab fransuz tilshunosligida, ritorika masalalariga bag'ishlangan asarlarda paydo bo'lgan [1]. Rus tilshunosligida muallif idiosstili bilan bog'liq dastlabki izlanishlar XX asrning 50-60 yillaridan boshlangan, idiosstil haqidagi dastlabki ma'lumotlarni V.V. Vinogradovning tadqiqotlarida – uning mashhur yozuvchilar uslubi masalalariga bag'ishlangan ishlarida uchramiz [2]. Ijodkorlar idiosstilini tadqiq etish lingvotika masalalaridan biri hisoblanib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining kesishuvida yuzaga keladi. Faqat bu ikki fan bir tadqiqot obyekti turli tomondan tekshiradi. O'zbek tilshunosligida muallif idiosstilini o'rganishga qaratilgan ilk tadqiqot ishi sifatida S.Umirovaning dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin [3]. U o'z dissertatsiyasida idiosstilni poetik individuallik atamasi ostida tadqiq etadi va ijodkorning individual mahorati sabab, matnda qo'llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va faqat shu ijodkor uslubiga xos bo'lgan individual vositaga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Idiosstil tushunchasining shakllanishi bir paytning o'zida til shaxsi (nutq egasi) tushunchasining shakllanishiga olib keladi. "Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e'tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi – inson omili bilan hisoblashmay til va uning tabiati haqida aniq xulosalarga kelib bo'lmaydi", – deb yozadi Sh.Balli [4]. U, shuningdek, stilistika – insonning o'zidir, deb ta'kidlaydi. Shuning uchun ham til shaxsi va idiosstil tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Til shaxsi konsepsiyasi o'zida tilshunoslik va psixologiya fanlari haqidagi bilim va tasavvurlarni umumlashtiradi. Til shaxsi nazariyasi til tashuvchisi va uning til xarakteri haqidagi ma'lumotlarni o'rganadi. Til shaxsini o'rganish jarayonida uning idiosstili va u yashagan yoki yashayotgan davr tilining imkoniyatlari oydinlashib boradi, shuning uchun ham buyuk ijodkorlar o'z davri tilini takrorlanmas birliklar bilan boyitib boradilar. Shuning uchun ham ijodkorning til shaxsi sifatidagi idiosstilini o'rganish muhimdir. Oddiy fuqaro, siyosiy arbob, rahbar yoki ijodkor tilini o'rganish ularning tildan foydalana olish va nutqiy imkoniyatlari haqida, ularning shaxsiyati haqida ma'lumotlar beradi. Shuning uchun ham zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda idiosstil tushunchasi keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, idiosstil ijodkor, publitsist, olim yoki ma'lum bir til tashuvchilar tilining nutqiy-uslubiy o'ziga xosligi yig'indisi bo'lib, u orqali til shaxsining lingvistik xarakteri reallashadi [5]. Idiosstil tushunchasi tilshunoslikda, badiiy asar uslubi tadqiq etilgan ishlarda, ma'lum bir ijodkor yoki ma'lum bir asar uslubi masalalarini aniqlashtirish ma'nosida ham qo'llaniladi.

Poetik asarlarning lingvopoetik tahliliga qaratilgan tadqiqotlarda idiosstil ijodkor badiiy olamini yoritish uchun xizmat qiluvchi lisoniy usul va vositalarning murakkab tizimi sifatida ta'riflanadi [6]. Mazkur ta'rif ijodkorning so'z tanlash va fikrni bayon qilish uslubida faqat o'zigagina xos bo'lgan va faqat o'zi amal qiladigan lisoniy qonuniyatlarni o'ziga bo'ysundirishini ko'rsatadi.

TILSHUNOSLIK

Shunga ko'ra, idiostil lingvistik atama sifatida individual uslub (stil) birikmasining qisqartirilgan shakli bo'lib, biror bir ijodkorning tildan foydalanish xususiyatlarini o'z ichiga olgan uslubning o'ziga xos kompleksi ma'nosini ifoda etadi. Mazkur atama badiiy asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda qo'llanib, nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma'nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati va fikrni yetkazish uslubi ma'nosini o'z ichiga oladi.

Jahon tilshunosligida idiostil atamasi o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab lingvokulturologiya, lingvopoetika, lingvostilistika yo'nalishlarida faol qo'llanila boshladi. Shu asosda mashhur so'z san'atkorlari – shoir va yozuvchilar idiostilini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yaratildi. Tilning struktural modeli doirasida badiiy asarlar matnlari tahlil qilinganida, matn til qurilishining o'ziga xosligi haqida fikr yuritilganda, tilshunos olimlar idiostil atamasini matnga antropotsentrik yondashuvdagi [7] "til shaxsi" atamasiga o'rnida ham qo'llaganlar.

Hozirgi zamon tilshunosligida tilni tadqiq etishda ikki xil yondashuv: struktur-funksional hamda antropotsentrik yondashuv ommalashdi. Til materiallarini faqat bir yondashuv asosida o'rganish bilan ularni to'laqonli baholab bo'lmaydi. Til shunday bir murakkab sistemaki, uni tadqiq etishda barcha tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, turli aspekt mezonlari asosida ish yuritish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham idiostil haqida so'z yuritganda, unga bir tomonlama baho berish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Poetik nutq muallifi o'z xalqi tili va madaniyati vorisi sifatida o'z nutqi orqali olamni o'ziga xos tarzda tasvirlaydi – o'z uslubini yaratadi. An'anaviy tilshunoslikda nutqning ana shu xususiyati tilshunoslar e'tiboridan chetda qolib kelgan.

Idiostil atamasiga yondosh qo'llanuvchi idiolekt atamasi ham borki, mazkur atamalarning qo'llanilishi va ular ifoda etgan tushunchadan kelib chiqib, mazkur atamalar ostida qanday hodisalar tushunilishi lozimligi borasida turli qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar idiostil va idiolekt atamalari bir hodisani nomlovchi ikki atama deb hisoblasalar [8;9;10], ikkinchi bir olimlar guruhi idiolektni idiostilga va adabiy tilga zid qo'ygan holda, uni umumxalq tili meyorlarini ifodalovchi birlik sifatida qo'llaydilar [11;12]. Uchinchi bir guruh esa idiolektni idiostilga material beruvchi baza (bizningcha, bu o'rinda ham idiolekt deyilganda umumxalq tili baza sifatida e'tirof etilgan) sifatida talqin qiladilar [5;13]. Bizningcha, uchinchi qarashni ilgari surgan mualliflarning ta'riflari ularning mohiyatiga yaqin keladi, chunki idiostil yuqorida aytib o'tilganidek idiolektga nisbatan keng tushuncha bo'lib, u ma'lum bir ijodkorning til vositalaridan o'ziga xos foydalanishi, o'ziga xos tizim sifatida nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma'nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati va fikrni o'quvchiga yetkazish uslubi demakdir. Idiolekt esa idiostilga nisbatan birmuncha tor tushuncha ifoda etadi va adabiy tilda mavjud bo'lmagan, umumxalq tilida yoki yakka bir muallif tomonidan qo'llaniladigan til (leksik yoki frazeologik) birliklariga nisbatan ishlatiladi. Biz mazkur ishda bu ikki atamani xuddi shu ma'noda ishlatishni lozim topdik.

Til vositalarini uslubiy tahlil etishda ularning nutq ichida ma'lum bir maqsad uchun funkcionallashuvi, so'z qo'llash meyorlari, sintaktik qurilmalarning o'ziga xos tarzda shakllanishiga e'tibor bermay, bayon uslubiga diqqat qaratmay turib, muallif idiostilini aniqlab bo'lmaydi. Muallif idiostilini aniqlash tilshunoslikning barcha tadqiqot metodlaridan unumli foydalanib, unga turli aspektlarda yondashishni taqozo etadi, chunki muallif idiostilida ona tilining lingvistik vositalari tizimi kompleksi to'la aks etadi. Shu bilan birga, muallif idiostili tilni yangi birlik va vositalar bilan boyishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida an'anaviy strukturalizm metodlari o'zlashtirilgan holda, ijodkor tili va uslubi, muallifning badiiy olami, poetik dunyosini o'zida aks ettiruvchi idiostilini tadqiq etish dolzarb masala bo'lib turibdi. Bunda tilshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlarini umumlashtirish asosida tadqiqotlar olib borish nazarda tutiladi. Mazkur fanlar strategiyasida har ikkisi uchun ham tadqiqot obyekti bo'lgan badiiy asar tadqiqi yotadi. Tilshunoslik uchun asarning til birliklari tahlili, adabiyotshunoslik uchun esa badiiy-estetik tadqiqi muhimdir [14]. Mazkur fakt fanlar interpretatsiyasida bir xil va mos keluvchi hamda bir-birini to'ldiruvchi mezonlarni ham belgilaydi. Muallif idiostili masalasiga ham shu nuqtayi nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir. Muallif idiostilini aniqlashda tilshunoslikda kommunikativ birliklarning qo'llanishi, til va uslub masalalariga e'tibor qaratilsa, adabiyotshunoslikda janriy-uslubiy va badiiy-estetik masalalar o'rganilishi lozim.

Tilshunoslikda muallif tomonidan til birliklarining qo'llanishidagi o'ziga xoslik tahlil qilinadi. Muallifning so'z qo'llash mahorati grammatik, paradigmatic, semantik-sintaktik va assotsiativ munosabatlar doirasida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim ijodkorlar asarlarida noadabiy birliklarning qo'llanishi shuni taqozo etadi. Masalan: yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida dialektizmlarning ko'p qo'llanishi uslubiy o'ziga xoslik hisoblanadi. Shuningdek, idiostilning o'ziga xosligi va takrorlanmasligi kognitiv tadqiqotlar doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif tilining bu jihatdan tahlil qilinishi obyektiv olamning muallif tomonidan tasvirlangan mazmuniy maydonini aniqlash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, idiostilni aniqlashda nutq muallifining kommunikativ ehtiyojini qondirish jarayonida, so'zlovchi sifatida kommunikativ nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, fikr va tuyg'ularini ifoda eta olish darajasi lingvistik mezonlar asosida tahlil etiladi. Muallif tilining o'ziga xosligi borliqni qanday tasavvur etishi va til vositalari yordamida uni tasvirlay olish darajasida ham ko'zga tashlanadi. Idiostilning o'rganilishida muallif tomonidan yaratilgan badiiy matnlar tahlili mantiqan o'zini oqlaydi. Bu jarayonda muallif tomonidan ishlatilgan leksik birliklarga emas, muallif fikrini iyerarxik tarzda rivojlantiruvchi sintaktik qurilmalar – so'z birikmalari, gaplar, ularning turlari (sodda, qo'shma, murakkab gaplar) supersintaktik butunliklar va ularning shakllanish jaryoni tadqiq etiladi. Muallifning sintaktik qurilmalarni tuzishdagi o'ziga xosligi, sintaktik qonuniyatlarga qay darajada amal qilishi yoki mazkur qonuniyatlar talablaridan (ma'lum bir stilistik maqsadda) chetga chiqish holatlari ko'rib chiqiladi.

Idiostil tadqiqida, eng avvalo, muallifning badiiy asar matnini yaratishda umumiy qonuniyat va tamoyillarga amal qilmaslik, grammatik qonuniyatlardan chetlashish, o'z falsafiy qarashlari bayonida "g'ayritabiiy" usul va vositalardan foydalanish darajasi diqqat markazida turadi. Lekin bu ijodkorlar doimo grammatik qonuniyatlarni chetlab o'tib asar yaratadilar, degani emas. Muallif doimo ma'lum bir tilning egasi sifatida shu tilga xos bo'lgan qonunlarga doimo amal qiladi. Faqat bayon uslubi va so'z qo'llashda o'ziga xosliklar kuzatiladi. Ayrim hollarda ma'lum bir personaj nutqining o'ziga xosligini ko'rsatishda yoki uning xarakterini tasvirlashda haddan ortiq chekinishlar bo'lishi mumkin. Idiostil asarda barcha til sathlariga oid birlik vositalarning qanday usulda qo'llanilishini belgilaydi. Shunga ko'ra, muallif idiostilini belgilovchi vositalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Stilistik vositalar. Bu vositalarga, asosan, troplar kiritiladi. Troplar yangi ma'nolarda qo'llanib, o'quvchi tomonidan fikrni obrazli qabul qilinishiga yordam beradi.

2. Fonetik-intonatsion vositalar. Bu guruh metateza, alliteratsiya, fonetik gradatsiya kabi tovush o'zgarishlari va tovush tovlanishlari bilan bog'liq vositalarni o'z ichiga oladi.

3. Grafik vositalar. Bu turdagi vositalarga asar matnida keng qo'llanilib, so'zlovchining gapirish tempi, intonatsiyasi, tutilishi, duduqlanishi va nutqida aks etuvchi boshqa nuqsonlarini ifoda etish maqsadida tinish belgilarini meyoridan ortiq ishlatilishi kiradi. Katta harflar bilan yozish, so'zning tagiga chizish, so'zni bo'g'inlab yozish kabi holatlar ham muallifning grafik idiostilini ko'rsatib turadi.

4. Leksik-semantik vositalar. Bu guruhga kalambur, oksyumoron, muallif tomonidan yaratilgan okkazonal so'zlar va boshqa shu kabi nutqda so'z o'yini hosil qiladigan birliklar kiradi. Bundan tashqari mazkur guruhga arxaizmlar, varvarizmlar, ekzotizmlar ham kiritiladi.

5. Leksik-sintaktik vositalar. Bu vositalarga nominativ, to'liqsiz va so'z-gaplarning meyoridan ko'p qo'llanishi. Gap qurilishining ataylab sintaktik qoidalardan tashqariga chiqishi, tema-rema munosabatining buzilishi kabilar kiradi. Rus tilshunosi Y.V.Klovak idiostilning asosiy belgilarini lisoniy, ekstralingvistik, stilistik sathlar doirasida quyidagicha tasnif qiladi:

- 1. Lisoniy sathda:** a) leksik birliklar;
b) so'z yasallashining o'ziga xosligi (okkazonal so'z yasallashi);
s) sintaktik butunliklar doirasida.

2. Ekstralingvistik sathda:

- a) paralingvistik vositalar;
- muallif tomonidan o'ziga xos tarzda qo'llangan tinish belgilari va boshqa grafik vositalar;
- ritm (poetik asarlarda).
- b) kompozitsion vositalar;
- nutqda makon va zamon birligining ifodalanishi;

TILSHUNOSLIK

- muallifning modal munosabatlari.

3. Stilistik sathda:

a) qayta nomlovchi vositalar (troplar);

b) sintaktik stilistik vositalar. [15]

Ko'rinadiki, idiosstilni aniqlashda muallifning til sathlari birliklarining qo'llanishini asos qilib olish keng va atroflicha xulosalarga kelishimiz uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Umuman, tilshunoslikda keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar tilning struktural tadqiqidan insonning tildan foydalanish imkoniyatlari, uning o'z ichki dunyosini til vositasida ifodalay olishi masalalariga qaratilmoqda. Muallif idiosstilni o'rganish ham shu yo'lda olib borilayotgan tadqiqotlar doirasiga kiradi. Muallif idiosstilni o'rganish tilga antropotsentrik yondashuv mahsuli bo'lib, uni o'rganish ijodkorlar tili va uslubini, ona tilimizning boy ifoda imkoniyatlarini o'rganish demakdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ларченко Е.В. Индивидуальный стиль и жанровые признаки: на материале творчества Жака Шарпантро. Автореф... дисс... канд... фил... наук. – Смоленск: 2016. – С. 34.
2. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: 1963. – С. 320.
3. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she'riyati misolida): Filolog. fanl. b.fal.dok. (PhD) diss... avtoref. – Samarqand: 2019. – B. 48.
4. Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — С. 392 — ISBN 5-8360-0407-2.
5. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. Под ред. Кожиной М. Н., 2-е изд., испр. и доп. - М., 2006. С.95-96.
6. Болотнова Н.С. Изучение идиостиля в современной коммуникативной стилистике художественного средства. М.: 2004. – С. 137.
7. Костомаров П. И. Антропоцентризм как важнейший признак современной лингвистики. / П. И. Костомаров. – Вестник Кемеровского государственного университета. Т1. №2 (58), 2014. – С. 198-203.
8. Чернышева Т.А. Идиостиль: лингвистические контуры изучения/ Вестник Череповецкого государственного университета, №1, 2010. – С. 30-34.
9. Малышева Е. Г. Идиостиль Владислава Ходасевича(опыт когнитивно-языкового анализа). Автореф... дисс... канд... фил наук: – Омск: 1997. – С. 22.
10. Леденёва В. В. Особенности идиолекта. – М.: Изд-во Моск. пед. ун-та 2000. – С. 185.
11. Ашимова А. Ф. / Идиостиль как проявление языковой личности автора на примере романа «Доктор Живаго» / Вестник Минского университета, №3, 2013. – С. 6-10.
12. Тихоненко О. Д. Категории «идиолект», «идиостиль», «языковая личность» и методики их лингвистического описания в контексте изучения языка художественной литературы/ Вестник КРСУ. 2013. Т. 13, №9, – С. 159-164.
13. Золян С.Т. Отописания идиолекта –к грамматике идиостиля. Вкн.: Язык русской поэзии XXв. Сб. научных трудов. – М.:1989. – С. 63-69.
14. Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – Москва: Наука, 1988. – С 382.
15. Кловак Е.В. Типичные авторские модели как реализация универсального и индивидуального в идиостиле. Автореф... дисс... канд... фил наук. – Тверь: 2015. – С. 28.